

ISSN 2992 - 9091



ISLOM MA'RIFATI

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom
institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-
adabiy jurnali



№1 2025



ISLOM MA'RIFATI

№1
2025

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnali



TAHRIR HAY'ATI:

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR

*O'zbekiston musulmonlari idorasi
raisi, muftiy, O'zbekiston xalqaro
islom akademiyasi faxriy doktori*

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV

Siyosiy fanlar doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Farxod KARIMOV

Siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Ilhom BEKMIRZAYEV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Ashirbek MO'MINOV

*Tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev
nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti)*

Rafik MUXAMETSHIN

*Rossiya islom universiteti rektori, siyosiy fanlar
doktori, professor (Rossiya)*

Mustafa KARATAŞ

*Istanbul universiteti ilohiyot fakulteti Hadis
kafedrası professori (Turkiya)*

Rashid ZOHIDOV

Filologiya fanlari doktori, professor

Ne'matullo MUHAMEDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY

Ilohiyot fanlari doktori (Misr)

Shovosil ZIYODOV

Tarix fanlari doktori (DSc)

Toji NOROV

Falsafa fanlari doktori

Ma'murjon ERKAYEV

*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Ulug'bek HASANOV

*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Uktam POLVONOV

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

Abdurasul ABDULLAYEV

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha
qo'mitaning 2025-yil 19-martdagi 03-07/1807-sonli
xulosa xatiga asosan tayyorlandi.*



Muassis

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTI

Bosh muharrir:

Uyg'un G'AFUROV

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sirotilloxon MUHAMMADSOLIYEV

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

"Islom ma'rifati" ilmiy jurnali O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 8-maydagi qarori bilan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2023-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 077254 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100002, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Zarqaynar 18-berk ko'cha, 47-uy.

E-mail: islom-instituti@umail.uz

Web-sahifa: <https://oliymahad.uz/>

Telefon: (+99871) 227-42-37

MUNDARIJA **QUR'ON ILMLARI**

Muhabbatxon AGZAMOVA.

Qur'on oyatlari va hadislarda silai rahmga e'tibor va uning jamiyat hamjihatligidagi o'rni.....4

ISLOM AQIDASI

Jurabek SODIKOV.

"Ta'vilot ahlis sunna" da aqliy dalillarning qo'llanish omillari.....13

ISLOM HUQUQI

Nigora XAKIMOVA.

Sahih hadislarning islom huquqida qo'llanishida uzluksiz rivoyat silsilasining ahamiyati.....22

Ibrohim USMANOV.

Hakim Termiziy asarlarida shar'iy hiylalar mavzusi muhokamasi.....32

ISLOM TARIXI

Pirnazar RAJAPOV.

Buyuk Saljuqiylar davri(1038-1157)da Xurosonda islom ilmlarining rivoji.....42

Sohibjon UMMATALIYEV.

O'rta asrlarda musulmon tarixnavisligi va uning yo'nalishlari.....51

Nilufar SAIDAKBAROVA.

Ahmad ibn Muhammad ibn Abu Bakr Hanafiy va uning ilmiy merosi.....60

TASAVVUF

Nilufar TUYCHIYEVA.

Fiqh va tasavvuf munosabatiga doir tahlillar.....69

SIYOSATShUNOSLIK

Behzodbek SOIPOV.

Musulmon mamlakatlarda davlat va din munosabatlaridagi muammolar: diniy radikalizm.....78

Sirotilloxon MUXAMMADSOLIYEV.

Siyosiy transformatsiyaga doir nazariy yondashuvlar tahlili.....90

TARIX

Muslim ATAYEV.

Ustrushana shaharlarining mintqa siyosiy-madaniy yaxlitlashuvidagi roli.....99

MANBASHUNOSLIK

Ilhomjon G'OFUROV.

Hanafiy mazhabi rivojida "Hidoya" asarining ahamiyati.....110

Sohibjon UMMATALIYEV

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrası o'qituvchisi

11, A. Qodiriy, 100011, Toshkent, O'zbekiston

e-mail: sohibjonummataliyev91@gmail.com

O'RTA ASRLARDA MUSULMON TARIXNAVISLIGI VA UNING YO'NALISHLARI

MEDIEVAL ISLAMIC HISTORIOGRAPHY AND ITS TRENDS

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati va ma'naviyati taraqqiyot bosqichlarida muqaddas islom dini alohida o'rin tutadi. Ilk o'rta asrlarda yozilgan tarixiy asarlar islom tarixini o'rganishda dastlabki manba sifatida xizmat qiladi. Ayni paytda mazkur davrda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat ilm-fanning barcha sohalarini rivojiga sabab bo'ldi. IX-X asrlarda Yaqin Sharqda hukm yuritgan Abbosiylar davlatida yagona arab tili va islom aqidasi ustuvorlik qildi.

Ilk o'rta asrlarda aksar islom tarixiga oid asarlar muhaddislar tomonidan yozilgan. Chunki mazkur asarlar mavzusi asosan Muhammad (alayhissalom) hayoti va faoliyatini yoritishga qaratilgan bo'lib, ular mag'oziy va siyra nomlari bilan yuritilgan. Mazkur asarlar keyingi davrlarda rivoj topgan futuh, tabaqot, tazkira va ansob (nasablar) kabi mavzulardagi kitoblar uchun asos sifatida xizmat qildi. Balazuriyning "Futuhul buldon" asari futuh yo'nalishidagi asar bo'lsa-da, unda mag'oziy va siyra asarlaridan foydalanilgan. Demak, ilk o'rta asr tarixchilari tomonidan tasnif qilingan manbalar asosiy mavzu-

signa ko'ra ma'lum yo'nalishga ega bo'lsa ham boshqa yo'nalishga xos xususiyatlarni aks ettira olgan. Quyida ulardan ayrimlari haqida to'xtalib o'tiladi.

ASOSIY QISM

Mag'oziy yo'nalishi. Mag'oziy so'zi "mag'za" (مغزى) so'zining ko'pligi bo'lib, arab tilidan tarjima qilinganda, "dushmanga qarshi kurashish" ma'nosini anglatadi. Istilohda Rasululloh (alayhissalom) ishtirok etgan janglarga nisbatan qo'llanadi. Mag'oziy so'zi bilan birga g'azot (G'azot – arabcha, "yurish qilish", "urush olib borish" ma'nolarini anglatadi) so'zi ham ishlatiladi. Mazkur yo'nalishdagi asarlar nafaqat Muhammad (alayhissalom) ishtirok etgan harbiy yurishlarni, balki u kishi tomonidan yuborilgan harbiy bo'linma – sariyyalar (Sariyya – Rasululloh (alayhissalom) biror maqsadni ko'zlab, bir sahoba boshchiligida yuborgan maxfiy jangovar guruhdir. Unda jang bo'lgan yoki bo'lmagan holatda ham sariyya deyiladi) tarixini ham o'z ichiga oladi (Tanohiy, 1985:43).

Hijriy birinchi asrning ikkinchi yarmida (milodiy VII asr oxiri VIII asr boshida) ba'zi tobe'inlar mag'oziy yo'nalishida asarlar yozishni boshladi. Ushbu yo'nalishdagi asarlar faqat islom tarixi fani doirasida emas, balki musulmonlar tomonidan yozilgan ilk yozma manbalar hisoblanadi. Hoji Xalifa (vaf. 1068/1657)ning "Kashfuz zunun" asarida keltirilishicha, Mag'oziy yo'nalishida birinchi bo'lib, Urva ibn Zubayr (vaf. 94/713) asar yozgan (Xalifa, 1981:1749). Undan so'ng Vahb ibn Munabbah (vaf. 109/728), Muhammad ibn Shihob Zuhriy (vaf. 124/742), Osim ibn Umar ibn Qatoda (vaf. 120/738) va Muso ibn Uqba ibn Abi Ayyosh (vaf. 141/758) kabi olimlar mag'oziy yo'nalishida asar yozgan (Uqba, 1994:9).

Mazkur tarixchilarning asarlari haqidagi ma'lumotlar Muhammad ibn Is'hoq (vaf. 151/769), Muhammad ibn Umar Voqidiy (130/747-207/823), Ibn Sa'd (vaf. 230/845) va Ibn Jarir Tabariy asarlarida keltirilgan

(Tanohiy, 1985:41). Quyida ba'zi mag'oziy asarlari va ularning mualliflari haqida to'xtalib o'tiladi:

Urva ibn Zubayrning "Mag'oziy" asari Nabiy (alayhissalom) hayotlarining ayrim o'rinlarini, xususan, vahiyni boshlanishi, ba'zi bir g'azotlar va muhim tarixiy hodisalarni o'z ichiga olgan. Asar Umaviylar saroyidan kelgan savollarga javob tarzida yozilgan uchun g'azotlar bilan bog'liq tafsilotlar hadislar isnodi orqali zikr qilingan. Urva ibn Zubayrning ma'lumotlari o'zining ishonchliligi bilan ajralib turadi. U voqealar tafsilotini otasi Zubayr ibn Avvom (vaf. 36/656), onasi Asmo binti Abu Bakr (vaf. 73/692), akasi Abdulloh ibn Zubayr (vaf. 73/692) va xolasi Oisha binti Abu Bakr (vaf. 58/678) kabi sahoba va sahobiyalardan rivoyat qilgan. Urva ibn Zubayrning "Mag'oziy" asarida Muhammad (alayhissalom) vafotlaridan so'ng yuz bergan

ridda urushlari, Qodisiya va Yarmuk janglari haqida ham boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar bayon qilingan (Davriy, 2000:25).

Muhammad ibn Shihob Zuhriyning "Mag'oziy" asari ham Urva ibn Zubayr bergan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda boshqa hadislar bilan boyitilgan. U tarixiy ma'lumotlarni yozishda dastlabkilardan bo'lib islomdan avvalgi voqealarni keltirgan. Muhammad Zuhriy hodisalarni bayon qilishda tarixiy izchillikka amal qilgan. Ilk o'rta asr arab madaniyatida voqea-hodisalarni nazmiy uslubda ifoda etish keng tarqalganligi bois Zuhriy ham mana shu bayon uslubidan unumli foydalangan. Tarixchi asarda Rasululloh (alayhissalom)ning hayot yo'llaridagi muhim tafsilotlarni zikr qilganidan so'ng, roshid xalifalar davrida yuz bergan Abu Bakr (roziyallohu anhu)ning xalifa bo'lishi, devon tizimining

Annotatsiya. Maqolada, O'rta asrlardagi musulmon tarixnavisligi arab tilidagi tarixiy asarlar, xususan, mag'oziy, siyra, tabaqot va boshqa shu kabi asarlar muhim o'rin tutishi hamda ularda musulmon tarixnavisligiga oid mukammal va aniq tarixiy ma'lumotlar yoritilishi ko'rib chiqiladi. Mazkur asarlar xususan, mag'oziy asarlari Muhammad (alayhissalom) davrining Madina bosqichini qamrab olgan bo'lsa, siyra asarlari VII asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgani ta'kidlanadi. Harbiy harakatlar tarixiga oid asarlarda islom dinining tarqalish jarayoni aks etgani bayon qilinadi. Shuningdek, bu asarlarda tarixiy voqea va hodisalar bilan birga yurish qilingan shahar va mintaqaning arablar kelishidan oldingi tarixi, davlat boshqaruv shakli, aholisi, tabiati, e'tiqodi hamda mintaq aholisining urf-odati va an'analari haqida ma'lumotlar keltirilgani ham bayon qilinadi.

Abstract. This article examines the role of Arabic historical works in medieval Islamic historiography, particularly the significance of maghāzī, siyar, ṭabaqāt, and other related genres. It highlights how these sources provide detailed and accurate historical accounts relevant to Islamic historical traditions. Specifically, the study notes that maghāzī literature primarily focuses on the Medinan phase of the Prophet Muhammad's (peace be upon him) life, while siyar works encompass events up to the late seventh century. It also discusses how military histories reflect the spread of Islam. Furthermore, these works not only document historical events but also provide insights into the pre-Islamic history of cities and regions, governance systems, population demographics, natural landscapes, religious beliefs, and the customs and traditions of local communities prior to Arab expansion.

Kalit so'zlar: Abbosiylar, Balazuriy, mag'oziy, siyra, Hoji Xalifa, Urva ibn Zubayr, Muhammad ibn Umar Voqidiy, Ibn Jarir Tabariy.

Key words: Abbasids, Balazuri, maghazi, siyra, Haji Khalifa, Urwa ibn Zubair, Muhammad ibn Umar Waqidi, Ibn Jarir Tabari.

joriy etilishi, Qur'oni karimning jamlanishi, Usmon (roziyallohu anhu)ning qatl etilishi, Ali (roziyallohu anhu)ning xalifalik davri, Jamal va Siffin voqealari hamda xalifalik boshqaruvining Umaviylar sulolasi qo'liga o'tishi kabi mavzularni keltirib o'tgan (Davriy, 2000:27).

Urva ibn Zubayr va Muhammad ibn Shihobning asarlari keyingi davr tarixchilari ijodida kuzatiladigan mubolag'a va bo'rttirishlardan xolidir. Shuningdek, bu davrda isroiliyot rivoyatlari va to'qima hadislarini rivoj qilish ham keng tarqalmagan edi. Islom ilmlariga isroiliyotning kirib kelishi va rivojlanishiga Vahb ibn Munabbah katta ta'sir ko'rsatdi. U "Mag'oziy" asarida yahudiylarning qadimgi ahd kitobida keltirilgan asotir va rivoyatlarga ahamiyat berdi. Ular orqali Qur'oni karimda ismi zikr qilingan payg'ambarlar haqidagi oyatlarni tafsir qilishga harakat qildi. Vahb ibn Munabbah Odam (alayhissalom)ning yaratilishi va payg'ambarlar tarixiga oid ma'lumotlarni avval yahudiy bo'lib, keyin islomni qabul qilgan Abdulloh ibn Sallam (vaf. 660) va Ka'bul Axbor (vaf. 652) kabi sahoba va tobe'inlardan rivoyat qilgan. Yaman tarixiga oid ma'lumotlari xalq orasida tarqalgan ertak va rivoyatlarga asoslangan. Shuning uchun XIV asrda yashagan misrlik tarixchi Muhammad ibn Abdurahmon Saxoviy (831/1427-902/1497) Vahb ibn Munabbah haqida: "Uning rivoyatlari ishonchli tarixchilar uslubiga xos emas" deya ta'rif bergan (Davriy, 2000:31)

Mag'oziy yo'nalishida yozilgan dastlabki asarlardan yana biri Muso ibn Uqba (vaf. 141/758)ning "Kitabul Mag'oziy" asari bo'lib, Yahyo ibn Ma'in (vaf. 233/848), Ahmad ibn Hanbal va Molik ibn Anas (93/711-179/795) kabi muhaddislar uni ishonchli manbalardan biri sifatida e'tirof etishgan (Tanohiy, 1985:42). Muso ibn Uqba Madinada tug'ilgan va Muhammad ibn Shihob Zuhriydan mag'oziy ilmini o'rgangan. U kitobida asosan madinalik muhaddislar rivoyat qilgan hadislariga

murojaat qilgan. "Kashfuz zunun" asari muallifi Hoji Xalifa ham Muso ibn Uqbaning "Mag'oziy" kitobi ishonchli asar bo'lganini aytib o'tgan (Xalifa, 1981:1749). O'rta asr tarixchilarining aksari Muhammad (alayhissalom) davri tarixini yoritishda Muso ibn Uqba ma'lumotlaridan keng foydalanganlar. Shuning uchun ularning asarlarida Muso ibn Uqbadan iqtiboslar keltirilishi ko'p kuzatiladi. Muhammad Boqshish Abu Molik Mag'oziy asaridan olingan oxirgi iqtibos XVI asrda yashagan tarixchi Husayn ibn Muhammad Diyorbakriy (vaf. 1559)ning "Tarixul xomis fi ahvali anfusin nafis" asarida naql qilinganini aytgan. Muhammad Boqshish iqtiboslardan foydalanib, 1994-yilda asarni nashr ettirgan (Uqba, 1994:11).

IX asrda Muhammad ibn Umar Voqidiy va Muhammad ibn Oiz (vaf. 233/847) tomonidan yozilgan "Mag'oziy" asarlari mavzusi keng qamrovliligi va ahamiyati jihatidan alohida o'ringa ega.

Muhammad ibn Umar Voqidiy 747-yilda Madinada tug'ilgan va hadis ilmini imom Molikdan o'rgangan. 796-yilda Voqidiy Bag'dodga ko'chib kelgan. Abbosiylar davlati vaziri Yahyo ibn Xolid Barmakiy uning ilmiy salohiyatini yuksak baholab, Bag'dod shahri qoziligiga tayinlagan. Voqidiy tarix sohasida "Mag'oziy", "Fath ifriqiya", "Fathul a'jam", "Fathush Shom" kabi asarlar yozgan. Tarixchi va muhaddislar uning ilmiy faoliyatiga turlicha fikr bildiradilar. Jumladan, Ahmad ibn Hanbal, Abu Dovud Sijistoniy (vaf. 275/888), Abu Is'hoq Juzjoniy (vaf. 259/872), Abu Abdurahmon Nasoiy (215/829-303/915) kabi muhaddislar uni yolg'onchi roviylardan hadis rivoyat qilganligi uchun tanqid qilganlar (Salumiy, 2004:112). Abdulaziz ibn Muhammad Dorovardiy (vaf. 187/803), Mus'ab Zubayriy (vaf. 236/851), Muhammad ibn Ahmad Zuhaliy (vaf. 258/871), Abu Bakr Sog'oniyy (vaf. 380/990) va boshqalar Voqidiyni ishonchli muhaddis bo'lganligiga guvohlik beradilar (Salumiy, 2004:107-109).

Shamsiddin Zahabiy (673/1274-748/1348) Voqidiyga bergan ta'rifida uning iqtidorini etirof etgan holda, oltita ishonchli hadis to'plamidan faqat ibn Moja asarida Voqidiydan rivoyat qilingan bir dona hadis mavjudligini aytadi (Zahabiy, 2006:162). Abdulaziz Davriy (1919-2010) tarixchining "Mag'oziy" asariga ijobiy baho berib, uni uslub va tarixiy voqealar izchilligi jihatidan Muhammad ibn Is'hoqning "Siyra" asaridan ko'ra afzal deb hisoblaydi (Davriy, 2000:35)

Abu Abdulloh Muahmmad ibn Oizning "Kitabul mag'oziy" asari haqida Shamsiddin Zahabiy "Mizanul i'tidal", "Kashif" va "Tahzibut tahzibil kamol" nomli kitoblarida ma'lumot keltirgan. Asar o'z davrida tarixchilar uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan. Ali ibn Asokir (vaf. 571/1176) "Tarixu Damashq", Ibn Sayyid Nas ismi bilan mashhur bo'lgan Muhammad ibn Muhammad Ya'muriy (vaf. 734/1334) "Uyunul asar", Ismoil ibn Kasir (vaf. 774/1372) "Bidaya van nihaya", Ibn Hajar Asqaloniy (vaf. 852/1449) "Isoba" va "Fathul borii" kitoblarida Muhammad ibn Oiz asaridan foydalangan. Asqaloniyning "Ibn Oiz mag'oziyidan ushbu masalaning javobini topdim", "Ibn Oiz naql qilishicha" kabi so'zlari unda Muhammad ibn Oiz asarining qo'lyozmasi bo'lganligiga dalolat qiladi (Savikat, 1999:15). Biroq asarning hozirgacha yetib kelgan qo'lyozmasi haqida ma'lumot aniqlanmadi.

Ushbu o'rinda mag'oziy uslubida asar ta'lif etgan ba'zi muarrixlar haqida ma'lumot berish bilan cheklanildi. Demak, mag'oziy yo'nalishidagi asarlarning aksar qismi VIII-IX asrlarda yozilgan. Undan keyingi asrlarda ushbu yo'nalishda asar yozish nisbatan kamroq kuzatiladi. Hoji Xalifa "Kashfuz zunun"da XI asrda Ibn Abdulbarr Qurtubiy (vaf. 463/1071), Ali ibn Ahmad Vahidiy (vaf. 468/1076) kabi tarixchilar ham mag'oziy yo'nalishida asar yozganini zikr qilgan (Xalifa, 1981:1747). Ilk o'rta asrlarda mag'oziy yo'nalishi bilan birga siyra yo'nalishida ham ta-

rixiy asarlar yozilgan. Quyida ular xususida so'z boradi.

Siyra yo'nalishi. VIII asr o'rtalarida siyra yo'nalishida tarixiy asarlar yozish boshlandi. Siyra (السيرة) so'zi lug'atda biror kishining tarjimai holi ma'nosini anglatadi. Istilohda nabaviy (النبوية) so'zi bilan qo'shilib, Muhammad (alayhissalom) hayot yo'llari haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalarni ifoda etadi. Doktor Muhammad Tanohiy (1935-1999) siyra so'ziga quyidagicha ta'rif beradi: "Siyra sayyidimiz Muhammad (sollalohu alayhi va-sallam)ning nasablari, tug'ilishlari, ulg'ayishlari, u kishining payg'ambarlik faoliyatlari, sifatlari va vafotlari haqida yozilgan asar bo'lib, u bilan birga "Mag'oziy" so'zi ham ishlatiladi" (Tanohiy, 1985:43).

Siyra yo'nalishidagi asarlarda Rasululloh (alayhissalom) tug'ilishlaridan avvalgi davrda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar ham zikr qilinadi. Mualliflar o'sha davrda Makka va Madinadagi siyosiy-ijtimoiy va diniy vaziyat haqida so'z yuritadi. Masalan: Abdulmalik ibn Hishomning "Siyratun nabaviya" nomli asarida arablarning kelib chiqishi, Amr ibn Luhay bilan bog'liq arablardagi butparastlik tarixi, Abraha va Fil voqeasi, Zamzam qudug'ining qazilishi kabi voqealar yoritilgan (Hishom, 2020:365).

Mazkur yo'nalishda dastlab Muhammad ibn Is'hoq, Ma'mar ibn Roshid (vaf. 153/771), Najih ibn Abdurahmon Madaniy (vaf. 169/787) kabi tarixchilar ijod qildi. Ma'mar ibn Roshid va Najih ibn Abdurahmon asarlarining qo'lyozmalari haqida tadqiqot davomida ma'lumot topilmadi. Ularning siyra ilmida asar yozganligi to'g'risida Muhammad ibn Nadim (vaf. 384/994)ning "Fihrist" (Nadim, 1997:136,138) va Shamsiddin Zahabiyning "Siyar a'lamin nubala" (Zahabiy, 2006:471) kabi tazkira kitoblarida ma'lumot keltirilgan. Hozirda mavjud bo'lgan siyra yo'nalishidagi eng qadimiy asarlardan biri Muhammad ibn Is'hoqning "Kitabus siyra val muftada val mag'oziy" kitobidir.

Ibn Is'hoq asaridagi bo'limlarni uch gu-

ruhga ajratish mumkin. Ular quyidagilar:

Mubtado – Muhammad (alayhissalom)ga payg'ambarlik vahiysi kelgunigacha bo'lgan davr;

Mab'as – Muhammad (alayhissalom)ga vahiy kelgan vaqtdan Madinaga hijrat qilingunigacha bo'lgan hodisalarni o'z ichiga olgan davr;

Mag'oziy – Madina hijratidan Rasululloh (alayhissalom) vafot etgan kungacha bo'lgan vaqt.

Ibn Is'hoq o'zidan oldin yozilgan mag'oziy mavzusidagi asarlarni jamladi va ularni tahrir qildi. Shuning uchun kitobda sahih hadislar bilan birga isroiliyotdan naql qilingan rivoyatlarni ham uchratish mumkin. Muhammad (alayhissalom) davri tarixini yozishda Ibn Is'hoq madinalik muhaddislar rivoyatlariga murojaat qildi. Isroiliyotdan payg'ambarlar tarixiga tegishli ma'lumotlarda ham foydalandi. Asar haqida ko'plab manbalarda zikr qilingan bo'lsa-da, uning mavjud qo'lyozma nusxalari bugungi kungacha to'liq shaklda yetib kelmagan (Zohidov, 2013:9).

Ibn Is'hoqning "Siyra" asari keyinchalik Abdulmalik ibn Hishom (vaf. 218/833) tomonidan qayta ko'rib chiqildi va qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirildi. Ibn Hishom manbalarda tarix, axbor, ansob, she'r, grammatika va lug'at olimi sifatida shuhrat topgan bo'lsa ham, uning ustozlari, asarlari haqida ma'lumotlar yetarli emas. Ibn Is'hoqning "Kitabus siyra val muftada val mag'oziy" asarini qaytadan tartibga keltirgan Ibn Hishom mana shu asar bilan shuhrat qozondi. Tarixchi asar yozish jarayonida Ibn Is'hoqdan rivoyat qilgan eng ishonchli roviylardan Ziyod ibn Abdulloh Bakkoiy (vaf. 182/799)ning kufiy-bag'dodiy deb mashhur bo'lgan nusxasini asos qilib olgan va o'rni kelganda unga qo'shimchalar ham kiritgan. Asar vaqt o'tishi bilan "Siyrat ibn Hishom" yoki "Tahzibu ibn Hishom" deb atalgan. Shamsiddin ibn Xollikon (vaf. 681/1282) Shamsiddin Zahabiy, Ismoil ibn Kasir, Muhammad ibn Abdurahmon

Saxoviy, Muhammad ibn Imod (1032/1623-1089/1679) kabi tarixchilar mazkur asarni Rasululloh (alayhissalom) hayotiga doir eng ishonchli va eng yaxshi siyra asari sifatida e'tirof etganlar. Asar bugungi kungacha yetib kelgan va Qohira (1978), Bayrut (1987), Tonto (1995) shaharlarida nashr etilgan (Zohidov, 2013:10).

Ibn Hishomning "Siyratun Nabaviya" asariga to'rtta mustaqil sharh yozilgan bo'lib, ulardan uchta nashr etilgan. Asarning eng keng qamrovli sharhi andalusiyalik muhaddis Abdurahmon ibn Abdulloh Suhayliyning (vaf. 581/1185) "Ravdul unuf fi sharhis Siyratin nabaviyya li Ibn Hishom" nomli kitobidir. U 1967-1970-yillar davomida Qohirada nashr etilgan (Suhayliy, 1967:464).

Siyra yo'nalishida yozilgan muhim asarlardan biri Abu Is'hoq Fizoriy (vaf. 188/803) ning "Kitabus siyar" asari hisoblanadi. Asarga Imom Shofe'iy ijobiy baho berib: "Siyra yo'nalishida hech kim Abu Is'hoq Fizoriy kabi kitob yozmadi" deya ta'rif bergan. Asar haqida Ibn Nadimning "Fihrist", Ibn Qutayba Dinavariy (vaf. 276/889)ning "Maorif", Mas'udiy (vaf. 346/956)ning "Murujuz Zahab", Shamsiddin Zahabiyning "Siyar al'amin nubala" va boshqa manbalarda naql qilingan (Fizoriy, 1987:61-62).

VIII-IX asrlarda asos solingan siyranavislik yo'nalishida asar yozish keyingi davrlarda ham davom etdi. Ahmad ibn Muhammad Miskavayh (vaf. 421/1030)ning "Kitabus siyar", Ali ibn Ahmad ibn Sa'idning (vaf. 456/1064) "Javami'us siyar", Ibn Sayyid Nasning "Uyunul asar fi fununil mag'oziy vash shamil vas siyar", Ismoil ibn Kasirning "Siyratun nabaviya", Ibn Dayba' Shayboniyning (vaf. 924/1518) "Hadaiqul anvar va matoli'ul asror fi siyratin nabiyil muxtor", Muhammad ibn Yusuf Shomiyning (vaf. 941/1535) "Subulul huda var roshad fi siyrati xoyril i'bad", Nuriddin Ali ibn Ibrohim Halabiyning (vaf. 1043/1634) "Insanul uyun fi siyratil aminil ma'mun" kabi asarlari siyranavislik sohasida

ta'lif qilingan noyob manbalar sifatida e'tirof etiladi (Tanohiy, 1985:48).

O'zbek tilida ham siyra yo'nalishida yozilgan zamonaviy nashrlarni uchratish mumkin. Jumladan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Hadis va Hayot" (Nubuvvat va risolat 19-juz), Zakoi Ko'nrpaning "Payg'ambarimiz va asharai mubashshara", Sayyid Mahmud Taroziyning "Nurul basar", Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy", Ahmad Lutfiy Qozonchining "Saodat asri qissalari", Doktor Ramazon Butiyning "Fiqhus siyratin nabaviya" kabi kitoblari allaqachon omma qo'liga yetib brogan (Nasrullayev, 2020:115). Shuningdek, Muhammad Xuzariyning "Nurul yaqin", Abdulmalik ibn Hishomning "Siyratun nabaviya", Safiurrahmon Muborakfuriyning "Rahiqul maxtum", Ibrohim Ali Shaut va Mahmud Muhammad Zayyodaning "Islomda oltin davr" kabi asarlari arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi (Ummataliyev, 2021:75).

Mag'oziy va siyra yo'nalishlari nomlanishi jihatidan farq qilsa-da, ulardagi tarixiy uslub o'xshash bo'lgan. Mag'oziy asarlari g'azot va sariyalar tarixini yoritish bilan birga, siyra kitoblaridagi kabi payg'ambarlar tarixi, Muhammad (alayhissalom) tug'ilishlaridan oldingi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, u zotning bolaliklari, Makka va Madinadagi faoliyati kabi mavzularni ham o'z ichiga olgan.

Harbiy harakatlar tarixi (futuh) yo'nalishi asarlari. VIII-IX asrlarda yozilgan asarlarning bir qismi harbiy harakatlar tarixini yoritishga qaratilgan. Ularda tarixiy voqea va hodisalar bilan birga yurish qilingan shahar va mintaqaning arablar kelishidan oldingi tarixi, davlat boshqaruvi shakli, aholisi, tabiati, e'tiqodi hamda mintaqaholisining urf-odati va an'analari haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Mazkur yo'nalishda asar yozish IX-X asrlardan boshlab rivojlandi. Muhammad ibn Umar Voqidiy, Muhammad ibn Oiz Damashqiy, Ahmad ibn Yahyo Balazuriy, Ahmad ibn A'sam Kufiy va boshqalar harbiy harakatlar tarixiga oid kitob yozdilar.

Birgina Hoji Xalifaning "Kashfuz zunun" asarida arablarning harbiy yurishlari tarixini yorituvchi quyidagi asarlar zikr qilingan:

Muhammad ibn Umar Voqidiyning "Futuhush Shom" asari. U Muhammad ibn Mahmud ibn Ajo (vaf. 925/1519) tomonidan nazmiy shaklda turk tiliga tarjima qilingan. Asar tarjimasi 12 ming misrani tashkil etgan (Xalifa, 1981:1237). Asar saj (qofiyali nasr) uslubida yozilgan bo'lib, Abu Bakr Siddiq va Umar ibn Xattob xalifaligi davrida Shom mintaqasiga tegishli bo'lgan Damashq, Hims, Qinnisrin, Halab va Falastindagi fath yurishlari yoritilgan. "Futuhush Shom" asari 1997-yilda Bayrutda nashr qilingan. Kashfuz zununda Voqidiyning "Futuhul Amsor" nomli asar yozgani haqida ham ma'lumot berilgan (Xalifa, 1981:17123747).

Abu Ubayda Muammar ibn Musanna Basriy (110/728-209/825)ning "Futuhu Urminiya" asari. Muallifning "Futuhu Ahvaz" nomli asari ham bo'lgan (Xalifa, 1981:1239). Abu Ubaydaning mazkur ikki asari ibn Nadimning "Fihrist" (Nadim, 1997:80), Shamsiddin ibn Xollikonning "Vafayotul a'yan" (Ummataliyev, 2021:239) asarlarida zikr qilingan.

Ahmad ibn A'sam Kufiyning "Kitabul futuh" asari. U 1199-yilda Xorazmshoh Takash buyrug'iga binoan Muhammad ibn Ahmad Mustavfiy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Asar tarix ilmida muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay o'rta asr manbalarida u haqida ma'lumot kam kelgan. Yoqut Hamaviy (vaf. 626/1229)ning "Mo'jamul udabo" (Hamaviy, 1993:202) va Ibn Hajar Asqaloniyning "Lisonul mizon" (Asqaloni, 2002:407) asarlarida bir-birini takrorlovchi qisqacha ma'lumotlar berilgan xolos. 1881-yilda Germaniyadagi "Gota" kutubxonasida asarning birinchi qismi topilgan. Bu vaqtgacha faqat kitobning forscha tarjimasi ma'lum bo'lgan. Asarning asl arabcha nusxasi esa Istanbuldagi To'pqopi Saroyidagi kutubxonadan (№ 2956, ikkita qism) topilgan.

“Kitobul futuh” 1991-yilda Bayrutda nashr qilingan (A'sam, 1991:1993).

Abu Huzayfa Is'hoq ibn Bashar Buxoriy (vaf. 206/821)ning “Futuhul baytil maqdis” asari (Xalifa, 1981:1240). Is'hoq ibn Bashar Balxda tug'ilgan va Buxoroga ko'chib kelib, shu yerda vafot etgan. Shuning uchun unga Buxoriy nisbasi berilgan. “Futuhul baytil maqdis” asari Xatib Bag'dodiyning “Tarixi Bag'dod” (Bag'dodiy, 2001:336), Yoqut Hamaviyning “Mo'jamul udabo” (Hamaviy, 1993:262302), Salohiddin Safdiy (vaf. 764/1363)ning “Kitabul vafiy bil vafayot” (Safodiy, 2000:264), kabi manbalarida “Kitabul futuh” deb atalgan. Ibn Nadimning “Fihrist” asarida Is'hoq ibn Bashar Buxoriy tomonidan yozilgan “Kitabul muftada”, “Kitabur ridda”, “Kitabul Jamal”, “Kitab Siffin”, “Kitab hufu zamzam” nomli asarlar sanab o'tilgan (Nadim, 1997:137). Biroq unda “Kitabul futuh” yoki “Futuhul baytil maqdis” asari haqida ma'lumot keltirilmagan.

Abulqosim Abdurahmon ibn Abdulloh ibn Abdulhakam Misriy (vaf. 257/871)ning “Futuhu Misr val Mag'rib” asari (Xalifa, 1981:1240). Muallif asarni yetti qismga bo'lib, ulardan oltitasida qadimgi Misr tarixi, u yerga islomning kirib kelishi, Amr ibn Oss davridagi boshqaruv, qozilik munosabatlari va Misrga kelgan sahobalar haqida so'z yuritadi. Faqatgina oltinchi qismda Shimoliy Afrika va Periney yarim orolining fath etilishi to'g'risida ma'lumot beradi. Asarning bir nechta qo'lyozma nusxasi bugungi kungacha yetib kelgan va 1922, 1961, 1974, 1995-yillari Qohirada nashr qilingan (Abdulhakim, 1995:9).

MUHOKAMA

Ahmad ibn Yahyo Balazuriyning “Kitabul buldon va futuhuha” asari (Xalifa, 1981:1204). Asar boshqa manbalarda “Futuhul buldon” nomi bilan mashhur. Balazuriyning “Futuhul buldon” (“Mamlakatlarning fath etilishi”) asari arablarning fath urushlari haqida hikoya qiluvchi maxsus yozilgan birinchi asardir.

X asrda tarixchi Mas'udiy bu asardan keng foydalangan va unga yuksak baho berib, “Kitobda sharq va g'arbdagi, shimol va janubdagi o'lkalar vasf qilindi. Biz mamlakatlarning fath etilishi haqida yozilgan bundan yaxshi kitobni bilmaymiz”, deb aytgan (Mas'udiy, 2005:12). Bu asar tadqiqotchilar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki unda arablarning turli mamlakatlarda olib borgan harbiy yurishlari va Arab xalifaligining ilk davridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi aks etgan. Bu asar Arab xalifaligining ilk tarixi bilan shug'ullanuvchi har bir mutaxassis uchun Tabariyning “Tarixur rusul val muluk” asari singari eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asar 1866-yilda Mixail Yan de Guye (1836-1909) tomonidan Balazuriy hayoti, uning ilmiy faoliyati, “Futuhul buldon” asari qo'lyozmalariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan muqaddima bilan zamonaviy shaklda chop etilgan.

TAHLIL

Hoji Xalifa asarida zikr qilinmagan bo'lsa-da, ilk islom tarixini o'rganishda muhim o'ringa ega harbiy harakatlar tarixiga oid asarlar ham bo'lgani tabiiy. Ularning tarkibiga Abulhasan Madoiniy (vaf. 225/840) va Abu Abdulloh Muhammad ibn Oiz asarlarini kiritish mumkin. Muhammad ibn Is'hoq Nadim Madoiniyning ushbu yo'nalishda yozilgan 47 ta asarini (Nadim, 1997:150), Yoqut Hamaviy 34 ta asarini (Hamaviy, 1993:1857) zikr qilgan. Ularda Shom, Iroq, Basra, Xuroson, Sijiston, Tabariston, Misr va boshqa hududlardagi arablarning harbiy yurishlari va o'sha hududlarda voliy mansabida ishlagan Mug'iyra ibn Shu'ba, Abu Muso Ash'ariy, Qutayba ibn Muslim, Junayd ibn Abdurahmon, Asad ibn Abdulloh Qasriy, Nasr ibn Sayyor kabi shaxslar tarixi yoritilgan. Xatib Bag'dodiy (vaf. 462/1071)ning “Tarixi Bag'dod” va Shamsiddin Zahabiyning “Siyar a'lamin nubala” asarlarida ham Abulhasan Madoiniyning harbiy harakatlar tarixiga oid asar yozganligi ta'kidlangan. Balazuriy “Futuhul buldon” asa-

rini yozishda ko'p o'rinlarda Madoiniy ma'lumotlaridan foydalangan.

Muhammad ibn Oizning "Kitabul futuh" asari haqida Ali ibn Husayn ibn Asokirning "Damashq tarixi" (Asokir, 1995:288), Jamoliddin Muzziy (vaf. 742/1341)ning "Tahzibul Kamol" (Muzziy, 1992:427), Salohiddin Safdiyning "Kitabul vafiy bil vafiyat" (Safdiy, 2000), Shamsiddin Zahabiyning "Siyar a'lamin nubala" (Zahabiy, 2006) nomli asarlarida ma'lumot keltirilgan. Salohiddin Safdiy asarida Muhammad ibn Oizning "Futuh" asari "Kitabul mag'oziy val futuh" shaklida bir o'rinda zikr qilingan. Bundan "Mag'oziy" va "Futuh" asarlari bitta kitob bo'lgan degan xulosaga kelish mumkin. Biroq "Siyar a'lamin nubala"da keltirilgan ma'lumot bu fikrni rad qiladi. Shamsiddin Zahabiy avval "Mag'oziy" asariga to'xtalib, undan naql qilingan rivoyatlarning aksarini eshitganligini aytadi. So'ng Muhammad ibn Oizning boshqa asarlarini, jumladan, "Kitabul futuh" asarini zikr qiladi. Shundan bilish mumkinki, "Mag'oziy" va "Futuh" asarlari bitta kitob bo'lmagan. Asarning bugungi kungacha yetib kelgan qo'lyozma nusxasi yoki tahqiqi haqida tadqiqot davomida ma'lumot uchramadi.

Abu Maxnaf Lut ibn Yahyo (vaf. 170/787) ham harbiy harakatlar tarixiga oid asar yozgan. Uning "Futuhul Iroq", "Futuhush Shom" nomli asarlari bo'lgan. Biroq Abu Maxnaf ba'

zi o'rinlarda zaif rivoyatlardan foydalanganligi uchun o'rta asr tarixchilari e'tiboridan chetda qolgan. Uning Shom va Iroqning egallanishi haqidagi asarlari Ibn Nadimning "Fihrist" (Nadim, 1997), Yoqut Hamaviyning "Mo'jamul udabo" (Hamaviy, 1993), kabi asarlarida naql qilingan. "Majma'ur rijal"da muallifning "Futuhu Xuroson" nomli asari ham borligi aytilgan.

XULOSA

Tazkira kitoblarida nomi keltirilgan harbiy harakatlar tarixi haqidagi asarlarning aksar qismi ilk o'rta asr tarixchilari tomonidan yozilgan. Bu omil o'sha davrda tarixchilar orasida mazkur yo'nalishda asar yozish keng tus olganligini ko'rsatadi. Zikr qilingan asarlar Arab xalifaligi tarkibida bo'lgan mintaqalar va u yerlarda yashagan xalqlar tarixini o'rganishda qimmatli manba vazifasini o'taydi.

Ilk o'rta asrlarda islom tarixi mavzusida yozilgan asarlar yuqorida keltirilgan yo'nalish bilan cheklanib qolmadi. Bu davrda siyra, tabaqot, ansob, axbor sohalarida ham bir necha asarlar ta'lif qilingan. Tadqiq qilinayotgan davrga tegishli tarixiy asarlar va ularning mualliflarini o'rganish ishonchli ma'lumotlarni qaysi manbadan olish mumkinligini belgilab beradi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibn Abdulhakam (1995). Futuhu Misr va Mag'rib / muhaqqiq va noshir Doktor Ali Muhammad Umar. Qohira: Maktabatus saqofatid diyniyya.
2. Davriy, A. (2000). Nash'atu limit ta'rix indal a'rob. Abu Dabi: Markazu zayid lit turos vat ta'rix.
3. Asqaloniy, I. H. (2002). Lisanul miyzan (J. 1). Bayrut: Darul bashairil islamiyya.
4. Xatib Bag'dodiy. (2001). Tarixi Bag'dod (J. 7). Bayrut: Darul g'arbil islamiy.
5. Muzziy, J. (1992). Tahzibul Kamol (J. 25). Bayrut: Muassasatur risala.
6. Fizoriy, A. I. (1987). Kitabus siyar / muhaqqiq: doktor Foruq Hammuda. Rabot: Muassasatur risala.
7. Hamaviy, Y. (1993). Mo'jamul udabo (J. 1). Bayrut: Darul g'arbil islomiy.

8. Ibn Nadim. (1997). Fihrist. Bayrut: Darul ma'rifa.
9. Ibn Asokir. (1995). Tarixu madinati Damashq (J. 53). Bayrut: Darul fikr.
10. Savikat, S. I. (1999). Muhammad ibn Oiz Damashqiy va musonnafatuhut ta'rixiyya // majallatul daro, 1420/1999-yil 3 soni. Riyod: Darul malik Abdulaziz.
11. Salumiy, A. I. (2004). Voqidiy va kitabuhul mag'oziy. Madina: Jami'atul islamiyya.
12. Safdiy, S. (2000). Kitabul vafiy bil vafayot (J. 8). Bayrut: Dar ihyout turosul arabiy.
13. Suhayliy, A. I. (1967). Ravdul unuf fi sharhi Siyratun nabaviyya li Ibn Hishom. Qohira: Darul kutubil islamiyya.
14. Ibn A'sam Kufiy. (1991). Kitobul futuh / muhaqqiq: Ali Shiriy. Bayrut: Darul Adva.
15. Zahabiy, Sh. (2006). Siyar a'lamin nubala (J. 8). Qohira: Darul hadis.
16. Zahabiy, Sh. (2006.). Siyar a'lamin nubala (J. 6). Qohira: Darul hadis.
17. Zohidov, Q. (2013.). Islom tarixi fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
18. Ibn Is'hoq. (2004). Siyratun nabaviyya. Bayrut: Darul kutubil ilmiyya.
19. Mas'udiy. (2005). Murujuz zahab (J. 1). Bayrut: Maktabatul asriyya.
20. Nasrullayev, N. (2020). Manbashunoslik. Darslik. Toshkent: Navro'z.
21. Tanohiy, M. M. (1985). Muvjaz fi maroji't tarojim val buldan val musannafat va ta'rifo-tul ulum. Qohira: Maktabatul Xonaji.
22. Muso ibn Uqba. (1994). Mag'oziy // muhaqqiq Muhammad Boqshish Abu Molik. Akadir: Jami'a ibn Zuhr.
23. Ummataliyev, S. (2021). Islom tarixidan oltin sahifalar – Umaviylar davri. Toshkent: O'qituvchi.
24. Xalifa, H. (1981). Kashfuz zunun, (J. 2). Bayrut: Daru ihyout turosil arabiy.
25. Ibn Xollikon. (1972). Vafayotul ayon (J. 5). / muhaqqiq Doktor Ehson Abbos. Bayrut: Daru Sodir.
26. Ibn Hishom, A. (2020). Siyratun nabaviyya. 1 kitob // tarjimonlar: Abulhakim Oripov, Akmaljon Ikromjonov, Abdulhamid Zayriyev, Jahongir Ne'matov, Abdulvohid Ahmadaliyev. Toshkent: Hilol-Nashr.

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTINING “ISLOM MA’RIFATI” JURNALI

Mazkur nashr oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarining professor-o'qituvchilari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, magistrantlari, talabalari hamda kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Tahririyatning fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo'lmasligi mumkin.
Jurnaldan iqtibos olinganda manba qayd etilishi shart.

Bosh muharrir:

Uyg'un G'AFUROV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Mas'ul kotib:

Sirojiddin ShODMONOV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sirotilloxon MUHAMMADSOLIYEV

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

Manzlimiz: 100002, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Zarqaynar 18-berk ko'cha, 47-uy.

Tel.: (+99871) 227-42-37

Web: <https://oliymahad.uz/> E-mail: islom-instituti@umail.uz

“MUHARRIR NASHRIYOTI” MChJ bosmaxonasida bosildi.

Bosishga 06.04.2025 yil ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.

Bosmaxona manzili: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
20A-mavze, So'galli ota ko'chasi, 5-uy.

E-mail: muharrir@list.ru



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

**Murojaat uchun:
71 227 42 37**



№1 2025